

## **TA'LIMNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI (TARAQQIYOT TENDENSIYALARI)**

Jumanova Fatima Uralovna

Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri, p.f.n., dotsent

e-mail jumanovafatima@gmail.com

tel:998006914

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'larning rivojlanish yo'naliishlari, ta'limga oid yangiliklar, ta'lim bosqichlari, ta'lim jarayoni va ta'lim tizimi uning rivojlanishi haqida atroflicha fikr yuritilgan. Insonparvarlashtirish tushunchasi ostida umuminsoniy qadriyatlar, inson hayoti va salomatligi, shaxsning erkin kamol topishi tushuniladi. Ijtimoiy-lashtirish o'quvchi-talabalar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham eng qulay shakl-lar, metodlar va shart-sharoitlar yaratilishini o'z ichiga oladiki, bunda inso-niy munosabatlar, o'zga fikrlarga chidamlilik, jamiyat oldidagi javobgarlik kabilar shakllantirilishi. Ta'larning mohiyati haqida xulosa va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, uzlusizlik, jamiyat, strategiya, kadr, moliya, pedagog, demokratishtirish, kompyuterlashtirish, uzlusiz ta'lim individlashtirish, fundament, metod, metodologiya, pedagogika, innovatsiya, tamoyillar, qoidalar, zamonaviy, tajriba, pedagog, standart, shaxsiy, kasbiy, sifat.

**Аннотация:** в данной статье подробно рассматриваются направления развития образования, образовательные инновации, этапы обучения, образовательный процесс и система образования о его развитии. Под понятием гуманизации понимаются общечеловеческие ценности, жизнь и здоровье человека, свободное взросление личности. Социально-студенческий - включает в себя создание наиболее благоприятных форм, методов и условий как для студентов, так и для преподавателей, с формированием таких, как замкнутые отношения, терпимость к чужим мыслям, ответственность перед обществом. Даются выводы и рекомендации о характере образования.

**Ключевые слова:** образование, преемственность, общество, стратегия, человеческие ресурсы, финансы, педагог, демократизация, компьютеризация, непрерывное образование, индивидуализация, фундамент, метод, методология, педагогика, инновации, принципы, правила, современность, опыт, педагог, стандарт, личный, профессиональный, качество.

**Annotation:** this article covers the development areas of Education, Educational Innovations, stages of education, the educational process and the educational system



in detail about its development. Under the concept of humanization, universal values, human life and health, free maturation of the individual are understood. Socio-student-includes the creation of the most favorable forms, methods and conditions for both students and teachers, with the formation of such as insular relations, tolerance of other thoughts, responsibility to society. Conclusions and recommendations are given about the nature of Education.

**Keywords:** Education, continuity, society, strategy, frame, finance, educator, democratization, computerization, continuous education individualization, Foundation, method, methodology, pedagogy, innovation, principles, rules, modern, experience, educator, standard, personal, professional, quality.

Bugungi kunda uzlusiz ta’lim tizimida quyidagi **o’ziga xos holatlar** vujudga kelgan:

- 1) ta’lim resurslari jamiyat ehtiyojlariga mos kelmasligi tufayli shaxsni ijtimoiy hayot va bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatining umumiy pastligi;
- 2) ta’lim sifatini nazorat qiluvchi vakolatli tuzilmalarning o‘quv-tarbiya muassasalarini litsenziyalash va akkredizatsiya qilishni rasmiy tash-kil etish bilan cheklanib, ularning amalda kechayotgan ta’lim jarayonini yetar-licha nazorat qilmasligi;
- 3) ma’rifiy muassasalar o‘ta jiddiy moliyaviy tanqislik sharoitida ishlashi, ta’lim sohasini tijoratlashtirishning hozirgi holati uni inqi-rozdan olib chiqsa olmasligi;
- 4) strategik nuqtai nazardan ta’lim tizimi va jarayonini uning barcha tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning samarali kon-sepsiyasi ishlab chiqilmaganligi, shuningdek ma’rifiy muassasalar faoli-yatini ma’lum bir tarzda tartibga solib turadigan qonun-qoidalar mavjudligi, biroq ta’lim tizimi va jarayonida shakllangan umumiy qoliplar uning yaxlit rivojlanishiga emas, balki ayrim qismlarining yomonlashuviga olib kelganligi;
- 5) ma’rifiy muassasalar faoliyatining davlat tomonidan tartibga so-linishi kuchayganligi, ularning haqiqiy mustaqilligini qat’iy tartibga so-luvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar (moliyaviy erkinlik, variativ DTS, o‘quv rejalarini va dasturlari va sh.k.) mavjud emasligi;
- 6) pedagogik va kadrlar tayyorlash siyosatining aniq konsepsiysi to‘liq ishlab chiqilmaganligi;
- 7) ma’rifiy muassasalar (maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’-lim maktablari, kasb-hunar kollejlari), ayniqsa hududiy oliy ta’lim muas-sassalarining ilmiy-pedagogik salohiyati pastligi;



8) ta'lim-tarbiya sohasida xalqaro hamkorlikning kengayishi va yangi ta'lim-tarbiya texnologiyalarining qo'llanilishi va sh.k.

Zamonaviy ta'lim tizimi va jarayoni o'tmishdagi faoliyatga emas, balki kelajak faoliyatga yo'naltirilgan bo'lsa, chinakam innovatsion xususiyatga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan bugungi ta'lim tizimi va jarayonida quyidagi **umumiyy tarraqqiyot tendensiyalari** kuzatilmoxda:

**1. Ta'lim tizimi va jarayonini demokratlashtirish.** Ta'lim turla-ri va mazmunini tanlash erkinligi, ularning hammabopligi, ta'lim tizimi va jarayonini boshqarishningning demokratik tabiatini va ma'rifiy muassasa-lar avtonomiyasi.

**2. Ta'lim jarayoni va o'quvchi-talaba mehnatini individuallashti-rish.** Individuallashtirish sinf (auditoriya) mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtini kamaytirish hisobiga o'quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy ishlari hajmini sezilarli oshirishni nazarda tutadi.

**3. Ta'limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish.** Ta'-lim jarayonida asosiy e'tibor o'quvchi-talaba shaxsiga yo'naltiriladi. O'quv-chi-talaba ta'limiy faoliyat sub'ektiga aylanadi. Ularning madaniy dunyoqa-rashi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar hisobiga kengaytiriladi. Insonparvarlashtirish tushunchasi ostida umuminsoniy qadriyatlar, inson hayoti va salomatligi, shaxsning erkin kamol topishi tushuniladi. Ijtimoiy-lashtirish o'quvchi-talabalar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham eng qulay shakl-lar, metodlar va shart-sharoitlar yaratilishini o'z ichiga oladiki, bunda inso-niy munosabatlar, o'zga fikrlarga chidamlilik, jamiyat oldidagi javobgarlik kabilar shakllantirilishi lozim.

**4. Ta'lim tizimi va jarayonini kompyuterlashtirish.** Kompyuter-lashtirish nafaqat hisoblash va grafik ishlari uchun, balki axborot tizimla-rida kirish uslubi, shuningdek avtomatlasmashirilgan tizimlar va ma'lumot-larni taqdim etish vositasi sifatida test va pedagogik nazorat uchun ham kat-ta amaliy ahamiyat kasb etadi.

**5. Ta'lim tizimi va jarayonini fundamentallashtirish.** Bu o'quvchi-talabalarning fundamental (umumilmiy) tayyorgarligini kengaytirish va chu-qurlashtirishni nazarda tutadi. Fundamental fanlar bo'lg'usi mutaxassislar-ga o'z sohasida erkin mo'ljash olishga, to'plangan yangi materiallarni mustaqil tahlil qilishga, noto'g'ri qarorlar qabul qilinishining oldini olishga im-kon beradi.

Texnologiyalarning tez o'zgarishi yaxshi fundamental tayyorgarlikni va yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish qobiliyatini talab etadiki, bu ishni tor doirada amalgalashirib bo'lmaydi.

**6. Ta'limiy dasturlarni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash,** shu jumladan, tegishli tarmoqlarning yetakchi korxonalariga ta'limiy xizmat-larni taqdim etish. Bu



shuni anglatadiki, o‘quvchi-talabalar mahsulot va xiz-matlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi sherik korxonalarda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**7. Uzluksiz ta’lim va mustaqil ta’lim olish** o‘quvchi-talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyati va ko‘nikmalarini shakllantirishga, ular-ning uzluksiz ta’lim tizimga qo‘silishi hamda o‘z bilimi, ko‘nikmasi va ma-lakasini doimiy oshirishga imkon beradi. Shuningdek, o‘quvchi-talabalar-ning amaliy loyihalarga, o‘quv ishlarining jamoaviy shakllariga (hamkor-lik, sheriklik va sh.k.) jalb etilishini anglatadi.

Uzluksiz ta’lim va mustaqil ta’lim olishni tashkil etish vazifalari qo‘sishimcha norasmiy (kurslar, treninglar, qisqa dasturlar, masofaviy ta’lim va sh.k.) va kundalik ta’lim (internet-resurslar, radio, televedenie, gazeta-jurnal, kutubxona va sh.k.) bilan ham hal etilishi mumkin.

**8. Ijodiy o‘quvchi-talaba shaxsini shakllantirish.** Bu o‘quvchi-tala-balarda ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishga imkon beruvchi sama-rali ta’lim texnologiyalari ishlab chiqilishini taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar ma’rifiy tizimi-ning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari quyidagilardan dalolat bormoqda:

- 1) ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotning zaruriy sharti sifatida aho-lining ilm-ma’rifatga, ya’ni ma’lumotli, o‘qimishli bo‘lishga ishtiyoqi, qi-ziqishlari muntazam ortib bormoqda;
- 2) bepul ta’lim-tarbiya beriladigan davlat ma’rifiy muassasalari tarmog‘i kengayib bormoqda;
- 3) xususiy ma’rifiy muassasalarda pullik ta’lim xizmatini ko‘rsa-tish tendensiyasi saqlanib qolmoqda;
- 4) davlat byudjeti hisobidan ta’lim tizimini moliyalashtirish hajmi oshib bormoqda;
- 5) ma’rifiy muassasalar uchun turli manbalardan mablag‘lar to‘plan-moqda;
- 6) ma’rifiy muassasalarni hududiy boshqarish tamoyili kengaymoqda;
- 7) turli yo‘nalishdagi ma’rifiy muassasalarning tuzilmaviy xilma-xilligi ortib bormoqda;
- 8) ma’rifiy muassasalarda o‘quvchi-talaba tomonidan tanlab o‘rganila-digan o‘quv fanlarga asosiy e’tibor qaratilmoqda va sh.k.

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqilgan holda **pedagogika fani taraqqiyotiga** ta’sir etuvchi quyidagi jihatlarni ta’kidlash mumkin:

- matematik-statistik, biopsixologik va gnoseologik fanlar natija-laridan keng foydalananish asosida pedagogikaning insonshunoslik fanlari bilan chuqur aloqalar o‘rnatishi va ilmiy pedagogik bilimlar integratsiyasi-ning kuchayishi;



- dunyoni pedagogik anglashning nazariy-fundamental doirasi kenga-yishi, ya’ni pedagogika fanning ilmiy maqomi va ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish, rivojlantirish uchun nazariyadan amaliyatga harakatlanish;
- pedagogik fanlar taraqqiyotini ta’minlashda matematik-statistik va semantik-semasiologik axborot manbalaridan tizimli foydalanishga o’tili-shi;
- ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini uyg‘unlashtirish, ijtimoiy muno-sabatlarni tartibga solish mexanizmlarini boshqarishda ta’lim jarayonini axborotlashtirishga alohida e’tiborning kuchayishi;
- pedagogika fanining o‘ziga qarashli harakatlanish, taraqqiyot yo‘lini saqlab qolishiga erishish va uning boshqa fanlar kategoriyalaridan o‘rinsiz foydalanishi hisobiga tushunarsiz murakkablashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- global pedagogik muammolarni hal etish uchun shaxslararo, millat-lararo va davlatlararo munosabatlarni insonparvarlashtirish va ahloqiy me’yorlar to‘liq ta’milanishiga doir ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining uzlusiz ma’rifiy tizimida sodir bo‘la-yotgan tub yangilanishlar jarayoni jahon ma’rifiy tizimiga integratsiyalanish va uning rivojlanish tendensiyalariga hamohangligidan darak bermoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017.
2. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’motini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. (PhD). –T.:, 2019.
3. F.Jumanova, S.Avazova, G.Jabborova, U.Xusniddinov. “Umumiy pedagogika asoslari” o‘quv uslubiy qo’llanma, Chirchiq-2020
4. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: Moliya, 2003.
5. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari.. – Toshkent: 2002.
6. Jumanova, F. U. (2020). Jabborova OM PRIMARY EDUCATION IN THE THIRD RENESSANCE. Academic Research in Educational Sciences, 1(4), 238-243.



7. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). PIRLS tadqiqotlariga tayyorlashda “organayzer” metodidan foydalanish imkoniyatlari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1471-1475.
8. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Shaxs kamoloti va faoliyat (muloqot), ularni boshqarish ma'rifiy pedagogic muammo sifatida. Academic research in educational sciences, 2(4), 81-88.
9. Artikova, N. S., & Jumanova, F. U. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish (PIRLS) misolida. Образование и наука XXI веке, 1(19), 455-460.
10. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Boshglang'ch sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishning ilmiy asoslari. Образование и наука в XXI веке, 3(20), 389-396.
11. Artikova, N. S., & Jumanova, F. U. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish (PIRLS) misolida. Образование и наука XXI веке, 1(19), 455-460.
12. Jumanova, F. U., & Sayupova, A. M. (2022). WHY CREATIVITY IS THE MOST IMPORTANT QUALITY YOU HAVE. Scientific progress, 3(3), 474-476.
13. Жуманова, Ф. У., & Назирова, Г. К. (2021). Мактаб ўқувчиларида соғлом турмуш тарзини ривожлантиришнинг психологик–педагогик омиллари. Academic research in educational sciences, 2(6), 27-32.
14. Jumanova, F. U., & Alliyorova, S. U. (2021). O'QUVCHILAR NUTQIY MALAKASINISINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VA ERTAKLARDAN UNUMLI FOYDALANISH. Academic research in educational sciences, 2(4), 74-80.
15. Жуманова, Ф. У. (2022). КОМПЕТЕНЦИИ, НЕОБХОДИМЫЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЮ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВЫЙ ПЕРИОД ПРИМИРЕНИЯ: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.012> Жуманова Фатима Ураловна Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, Кафедра педагогики и психологии дошкольного образования, Доцент, кандидат педагогических наук. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (10), 115-122.
16. Uralovna, J. F., & Mirzabekovna, S. A. (2022). How to develop critical thinking in children. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 4-6.



17. Жуманова, Ф. У. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШ. Архив научных исследований, 2(1).
18. Sayupova, A. M., & Jumanova, F. U. (2022). EARLY DIAGNOSTIC ANALYSIS OF CREATIVENESS ABILITY OF SCHOOL-AGED CHILDREN. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 296-299.
19. Jumanova, F. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ. Scienceweb academic papers collection.
20. Jumanova, F. U., & Alfayzov, S. A. (2021). BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA МЕНЕЖЕРЛИК КОМПЕТЕНСИЯСИНІ ШАКЛАНТИРИШДА PSIXOLOGIK METODLARDAN FOYDALANISH. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1069-1072.
21. Jumanova, F. (2021). ИНСОННИНГ КИЙИНИШ МАДАНИЯТИ, УНИНГ ХУСН ВА ОДОБ РАМЗИДИР. Scienceweb academic papers collection.
22. Jumanova, F. U. (2021). Янги Ўзбекистон таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар. Science and Education, 2(Special Issue 1), 67-77.
23. Jumanova, F. (2021). БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЛУГАТ БОЙЛИГИНИ ОШИРИШДА ЛИНГВО-ПЕДАГОГИК АСОСЛАР. Scienceweb academic papers collection.
24. Jumanova, F. (2021). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANТИRISH (PIRLS MISOLIDA). Scienceweb academic papers collection.
25. Жуманова, Ф. У., & Джуманов, А. М. (2021). СУЩНОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ВАЛЕОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА. Экономика и социум, (10 (89)), 1361-1364.
26. Uralovna, J. F. (2023). INNOVATIVE POTENTIAL OF THE TEACHER. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5), 2514-2517.
27. Urolovna, J. F., & Kamalovna, Y. S. (2023). REPRODUCTIVE MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING HISTORICAL AND HISTORICAL DEVELOPMENT. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 11, 189-192.
28. Uralovna, J. F. (2023). SOCIAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF CHILDREN IN PRESCHOOL

**Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Paris, France.**

**Date:** 19<sup>th</sup> March, 2024

**ISSN:** 2835-3730

**Website:** econferenceseries.com

**EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.** Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 20-23.

29. Uralovna, J. F. (2023). YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 392-398.

